Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'llari.....	860
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
O'zbekistonda ko'chmas mulklar qiymatini garov maqsadida baholashning muommolari	866
Muxtorov Muhammadjon Muhsinjon o'g'li, Aktamov Bobirjon Mardon o'g'li	
Sanoat korxonalarida "yashil iqtisodiyot"ni raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish ahamiyati.....	870
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
Aholi daromadlari taqsimotida tengsizlikning vujudga kelishi va uning nazariy jihatlarini	875
Vosiqov Ulug'bek Alisherovich	
FURE algoritmi orqali post-kvant xavfsizlik tizimlarining xavfsizligini oshirish.....	881
Shukhrat Toirov Abduganiyevich, Saidakhmedov Eldor Islomovich	
Global pandemiyadan keyingi davrdagi monetar siyosatning asosiy jihatlarini.....	884
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
IT xizmatlarni eksport qiluvchi korxonalarni soliqqa tortishni takomillashtirish.....	896
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
Methods of credit to the service sphere by commercial bank.....	901
Nurmukhammedov Abdijabbar Yunusovich	
O'zbekistonda mehnat bozori infratuzilmasini samarali rivojlantirish yo'llari.....	908
Bozorov Akmal Amonovich, Shadmanov Erkin Sherkulovich	
Bojxona organlari faoliyatida bojxona menedjementi tushunchasi va uning ilmiy-nazariy asoslari	915
Mirzaxmedova Dilafruz Farxatovna, Tuxbabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Korporativ munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish.....	920
Ismailov Allayor Rashidovich	
Прямой маркетинг в новой цифровой реальности – эффективные стратегии прямого маркетинга для завоевания аудитории.....	929
Маматкулова Шоира Джалоловна	
O'zbekistonda soliq mamuriyatchiligini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning ustuvor yo'nalishlari	935
Valiyeva Sayyora Xushbakovna	
Green economy and international cooperation: global initiatives and agreements.....	939
Nazarova Ra'no Rustamovna, Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sanoat korxonasida ekologik hisobni rivojlantirish nazariyasi	946
Hatidje Nasirova	
Yashil moliyalashtirish va yashil obligatsiyalar	953
Maxtimova Zarafshon Olloyorovna, Ro'ziyeva Maftuna Yusufvna	
Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiyot samaradorligidagi o'rni va ahamiyati.....	958
Ajamilova Nigora Asametdinovna	
Aholining unumli bandligi darajasini oshirish: xalqaro maqsadlar sari qadamlar	962
Qurbonov Samandar Pulatovich	
Raqamli texnologiyalar asosida tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar	970
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni.....	975
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tog'ayev Abror Akbar o'g'li	



MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNINI



Ayubov Ilyos Iloxomovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, i.f.f.d., PhD, dotsent.

Tog'ayev Abror Akbar o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz turistik resurslari va ularning potensial imkoniyatlari, turistik sanoat obyektlari izohlab berilgan. Davlatimizning turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari hamda turistlarni jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan ishlar va bir nechta rivojlantirilayotgan turistik joylar va infratuzilma, tashqi investitsiyalarni jalb qilish haqida yoritilib o'tiladi va bundan tashqari Bugungi globallashuv va iqtisodiy raqobat kuchaygan sharoitda turizm sanoati nafaqat xizmat ko'rsatish sohasining muhim tarmoqlaridan biri, balki milliy daromad manbai, bandlikni ta'minlovchi va investitsiyalarni jalb etuvchi kuchli omil sifatida ko'rilmoqda. Turizm orqali yaratilayotgan qo'shimcha qiymat, valyuta tushumlari, yangi ish o'rinlari, infratuzilmaning rivojlanishi, hududiy tengsizliklarni kamaytirish va madaniy almashinuvning iqtisodiy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Turizm, turistik hudud, turistik xavfsizlik, turistik qiziqish, turistik industriya, aqlli shahar, yashil zona, aqlli turizm, innovatsiya, infratuzilma, tashqi investitsiyalar, milliy daromad, globallashuv.

Abstract: This article describes the tourist resources of our country and their potential opportunities, tourist industry facilities. The possibilities of developing the tourism sector of our country and the work carried out to attract tourists and several developing tourist sites and infrastructure, attracting foreign investments are highlighted, and in addition, in today's conditions of globalization and increased economic competition, the tourism industry is considered not only one of the important sectors of the service sector, but also a source of national income, a strong factor providing employment and attracting investments. The economic significance of the added value created through tourism, foreign exchange earnings, new jobs, infrastructure development, reduction of regional inequalities and cultural exchange is substantiated.

Key words: Tourism, tourist area, tourist security, tourist interest, tourist industry, smart city, green zone, smart tourism, innovation, infrastructure, foreign investments, national income, globalization.

Аннотация: В статье описываются туристические ресурсы нашей страны, их потенциальные возможности, объекты туристической индустрии. Освещены возможности развития туристического сектора нашей страны, проводимая работа по привлечению туристов, развитие ряда туристических объектов и инфраструктуры, привлечение иностранных инвестиций. Кроме того, в современных условиях глобализации и усиления экономической конкуренции туристическая отрасль рассматривается не только как одна из важных отраслей сферы услуг, но и как источник национального дохода, весомый фактор обеспечения занятости и привлечения инвестиций. Обоснована экономическая значимость добавленной стоимости, создаваемой за счет туризма, валютных поступлений, новых рабочих мест, развития инфраструктуры, сокращения регионального неравенства и культурного обмена.

Ключевые слова: Туризм, туристическая зона, безопасность туристов, туристический интерес, туристическая индустрия, умный город, зеленая зона, умный туризм, инновации, инфраструктура, иностранные инвестиции, национальный доход, глобализация.



KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida eng dolzarb iqtisodiy masalalardan biri – bu davlatlar iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va davlat mudofaa tizimining mustahkamligini ta'minlashdan iboratdir. Biroq ko'plab davlatlar ushbu muammolarga samarali yechim topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida salmoqli o'rin egallagan sohalardan biri bu – turizm tarmog'i bo'lib, u iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibida turizmning 25 foizgacha bo'lgan ulushini tashkil etayotgan mamlakatlar mavjud bo'lib, bu ularning global iqtisodiy maydondagi mavqeini mustahkamlab bormoqda. Ushbu xalqaro tajriba asosida O'zbekiston Respublikasida ham turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xizmat ko'rsatish sohasida turizmning YalMdagi ulushi 4 foizdan oshib borayotgani esa soha salohiyatining jadal o'sayotganidan dalolat beradi.

Turizm sohasi iqtisodiyotda keng ko'lamli funksiyalarni bajaradi: u nafaqat iqtisodiy faollikni jadallashtiradi, balki madaniy almashinuvni ta'minlaydi, yangi ish o'rinlari yaratadi, eksport hajmini oshiradi hamda milliy daromad manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, infratuzilmani yaxshilash, transport va aloqa tizimlarini modernizatsiya qilish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash kabi omillar turizm bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston misolida olib qaralganda, mamlakatimizda turizm salohiyati juda yuqori bo'lib, qadimiy shaharlari, boy tarixiy merosi, betakror tabiati va mehmondo'st xalqimiz tufayli yurtimizga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. So'nggi yillarda hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tub islohotlar, xususan, soddalashtirilgan viza tizimi, yangi sayyohlik yo'nalishlarining ochilishi, zamonaviy mehmonxona va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining barpo etilishi bu tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda.

Shu sababli, ushbu maqolada turizm sohasining zamonaviy iqtisodiy modeldagi o'rni va roli, uning iqtisodiyotga ta'siri, mavjud imkoniyatlar hamda mamlakatimizda bu sohaga oid olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-sonli1 qonunda, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida turizmga oid qonunchilikda nazarda tutilganidan farqli qoidalar mavjud bo'lsa, ushbu hollarda xalqaro shartnoma qoidalari ustuvor qo'llaniladi [8]. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro shartnomalarda ko'zda tutilgan islohotlar milliy qonunchilikka integratsiyalashuvi nazarda tutilmoqda.

Shkarov A.B. va Ulashev X.A. tomonidan yozilgan "Makroiqtisodiyot" darsligida O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati hududlar va infratuzilmani kompleks tarzda rivojlantirishga asoslanishi ta'kidlanadi [3]. Azizov F.ning "Innovatsion turizm va raqamli infratuzilma: O'zbekiston tajribasi" nomli asarida esa "aqlli turizm" tushunchasi, raqamli texnologiyalar orqali sayyohlar uchun qulayliklar yaratish, zamonaviy infratuzilma bilan integratsiya qilish va IT yechimlarning turizm sohasidagi o'rni tahlil qilingan. Bu yondashuv maqolada ishlatilgan "aqlli turizm" va "innovatsiya" kabi kalit tushunchalarning mazmunini ilmiy jihatdan chuqurlashtiradi hamda metodologik asos yaratadi [15].

Asosiy xorijiy adabiyotlar orasida Dwyer, Forsyth va Dwyer muallifligidagi "Tourism Economics and Policy" nomli asarda turizm iqtisodiyoti, davlat siyosatining turizmga ta'siri, narx va talab mexanizmlarining iqtisodiy tizimdagi roli chuqur yoritilgan [12]. Urunbayeva Yu.P.ning "Makroiqtisodiyot" (2024) nomli asarida esa turizmning milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuvi, iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikka qo'shgan hissasi, milliy valyutaning barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorlik va xalqaro savdodagi o'rni batafsil yoritilgan.

Xususan, bu manbalarda turizmning bandlik darajasiga ta'siri, eksport daromadlarini oshirishdagi o'rni, turizm siyosatining strategik rejalashtirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Ushbu yondashuvlar maqoladagi "iqtisodiy barqarorlik" va "investitsiya" kabi mavzularni nazariy va empirik jihatdan mustahkamlaydi.

2019–2025-yillarda turizmni rivojlantirishga qaratilgan Konsepsiya hamda 2030-yilgacha mamlakatni "yashil" iqtisodiyotga o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar bu boradagi milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan. Shu bilan birga, Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlikda turizmni rivojlantirish va yangi turizm yo'nalishlarini yaratish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2022-yilda Qo'qon shahri "Turkiy dunyoning turizm poytaxti" deb e'lon qilinib, shahar infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [4].

Shuningdek, 2025-yil 3–5-aprel kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti mintaqaviy hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu sammit nafaqat tashqi

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-sonli qonun: <https://lex.uz/uz/docs/-4428097>



siyosatning ustuvor yo'nalishlari, balki iqtisodiy, ekologik va inson kapitalini rivojlantirish nuqtai nazaridan ham muhim voqea bo'ldi. Sammitda imzolangan hujjatlar inson huquqlari, qonun ustuvorligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va bozor iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sohalaridagi uzoq muddatli hamkorlikni kafolatlaydi².

O'zbekiston turizm jozibadorligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 7400 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ulardan 209 tasi YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Xususan, Xiva shahridagi Ichan-qal'a, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari, Samarqand shahrining madaniy meros yodgorliklari mamlakatimiz turizmining tayanch ustunlari hisoblanadi³.

Bundan tashqari, Andijon, Urganch va Toshkent shaharlarida madaniy-ko'ngilochar bog'lar tashkil etilgan, "Angren–Pop" temir yo'li, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar elektrlashtirilgan poezdlar qatnovi uchun temir yo'llar qurilgan. Turizmning asosiy maqsadi – xorijiy sayyohlarni jalb etish bo'lib, "aqlli turizm" esa innovatsion texnologiyalar va "aqlli shahar" konsepsiyasi asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni anglatadi [3, 5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy manba sifatida normativ-huquqiy hujjatlar, so'nggi yillardagi ilmiy adabiyotlar, statistik byulletenlar, hukumat qarorlari va xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida turizmning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi aniq va asosli tarzda yoritiladi.

Shuningdek, boshqa usullardan ham foydalanilgan, masalan: empirik yondashuv, deskriptiv (ta'riflovchi) metod va tahliliy metod.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm jozibadorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, aqlli turizm texnologiyalari orqali sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish, resurslarni samarali boshqarish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan. Aqlli shaharlar kontsepsiyasi doirasida ko'chalar, binolar, transport tizimlari va ekologik sharoitlarni kuzatish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi. Bu esa turizmni boshqarish bo'yicha tezkor va oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonning tarixiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzda ilmiy va madaniy merosni targ'ib qilishga yo'naltirilgan seminarlar, simpoziumlar va konferensiyalar tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi sayohat marshrutlarini ishlab chiqish va ularni raqamli platformalarda ilgari surish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlikda yaratilayotgan zamonaviy turizm platformalari esa mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu platformalar tashkilotning rasmiy veb-sahifalari bilan integratsiya qilinib, umumiy axborot almashinuvi va sayyohlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratmoqda. Bu esa O'zbekistonning turizm sohasidagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Turizm sohasining rivojlanishi yangi ish o'rinlarining yaratilishini ta'minlab, iqtisodiy o'sish va barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, mehmonxona va turistik infratuzilmaning kengayishi – yangi mehmonxonalar, kurortlar, motel va boshqa xizmat obyektlarining qurilishi orqali yuzlab ish o'rinlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Yaratilayotgan ish o'rinlari, asosan, mehmonxona xizmatlari, ma'muriy xizmatlar, tozalik, xavfsizlik, texnik xizmat ko'rsatish, restoran va umumiy ovqatlanish sohalar bilan bog'liq bo'lib, shu sohada malakali kadrlar bo'yicha talab ortmoqda. Xususan, oshpazlar, barmenlar, ofitsiantlar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj turizm rivojlanishi bilan bevosita mutanosib ravishda oshmoqda.

Shu tarzda, turizm sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida nafaqat xizmatlar sektorining kengayishi, balki bandlik, infratuzilma rivoji va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish orqali ham ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. (1-jadval, 1-rasm)

1-jadval. 2024-yilning 10 oyi davomida O'zbekistong kelgan turistlar soni:


Davlat	Turistlar soni (ming nafar)
Tojikiston	1 878,5
Qirg'iziston	1 870,3
Qozog'iston	1 267,5

² Gazeta.uz sayti .<https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/17/scf/>

³ O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi. stat.uz/uz/



Rossiya	686,7
Turkmaniston	145,0
Turkiya	95,7
Xitoy	57,7
Hindiston	55,9
Janubiy Koreya	36,5
Italiya	36,3
Boshqa davlatlar	366,6



1-rasm. 2024-yilning 10 oyi davomida O'zbekistonga kelgan turistlar soni⁴.

Bundan tashqari, 2024-yilning yanvar—may oylarida esa 2,8 milliondan ortiq turist kelgan, bu o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 9,6% ga oshganini ko'rsatadi. O'zbekiston fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 2020-yildan boshlab 86 taga yetgan. Shuningdek, O'zbekiston fuqarolari uchun 10 ta mamlakat bilan ikki tomonlama vizasiz tartib o'rnatilgan: Qirg'iziston (60 kungacha), Tojikiston (30 kungacha), Ozarboyjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Moldova, Rossiya va Ukraina kabilar shular jumlasidandir.”⁵

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirmasdan turib iqtisodiy barqarorlikka erishish va uzoq muddatli taraqqiyotni ta'minlash murakkab kechadi. Zamonaviy global iqtisodiy sharoitda ko'plab rivojlangan mamlakatlar – jumladan, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va boshqa davlatlar turizm tarmog'ini strategik yo'nalish sifatida rivojlantirib, iqtisodiy o'sishga erishmoqdalar. O'zbekiston ham mazkur tajribalardan foydalanib, milliy an'ana va qadriyatlarni saqlagan holda, jahon andozalariga mos infratuzilma va xizmatlar tizimini yo'lga qo'yishi zarur.

Mamlakat turizm jozibadorligini oshirmasdan turib xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirish qiyin. Turizm sohasining izchil rivoji esa iqtisodiy o'sishning davomiyligini va tizimlilikni taqozo etadi. Shu bois, mavjud islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jumladan, turistik infratuzilmani takomillashtirish, raqamli xizmatlarni kengaytirish, ichki va tashqi marketing faoliyatini kuchaytirish lozim.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish maqsadida muntazam o'tkazilayotgan xalqaro sammitlar va konferensiyalar mamlakatning global turizm bozoridagi mavqegini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu tadbirlar nafaqat turizm sohasining rivojlanishiga, balki O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini jahon

⁴ Manba: Ushbu jadval O'zbekistonning Respublikasining milliy statistika qo'mitasining rasmiy sahifasidan olingan . stat.uz/uz/.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy veb-sayti: <https://uzbektourism.uz>



miqyosida tanitishga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga va yangi hamkorlik aloqalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, O'zbekistonda bo'lib o'tgan va kelgusida o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro turizm sammitlari mamlakatda turizm infratuzilmasini yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish, yangi turistik yo'nalishlarni ochish hamda madaniy merosni saqlash kabi muhim global vazifalarni hal etishga zamin yaratmoqda.

Bunday sammitlar O'zbekistonni jahon turizmi uchun jozibador va barqaror maskan sifatida tanitishda, boshqa davlatlar bilan turizm sohasida tajriba almashish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi masalalarda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga imkon yaratmoqda. Natijada, turizm sohasi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda turizmning yangi tarmoqlari – madaniy turizm, ekoturizm, sog'lomlashtirish va sog'lom turizm yo'nalishlari rivojlanmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar va diversifikatsiyalashgan yo'nalishlarni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turizmni barqaror rivojlantirishda madaniy va tabiiy merosni saqlash, ekologik muvozanatni ta'minlash, ijtimoiy tenglik va inkluzivlik kabi tamoyillarga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

O'zbekistonning global turizm tarmog'iga integratsiyalashuvi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki xalqaro maydonda mamlakat imijini mustahkamlashga, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar mamlakat raqobatbardoshligini oshirish va uni jahon miqyosida tanitishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 12.09.2023, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 180 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika bosh boshqarmasining rasmiy sayti, <https://www.stat.uz>
4. Shakarov A.B., Ulashev X.A. Makroiqtisodiyot: Darslik. – Samarqand: "SamDCHTI" nashriyoti, 2024. – 334 bet.
5. L.N. Xalikova, I.I. Ayubov, Z.U. Shodmonova, U.N. Normurodov. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma. – Samarqand: Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti, "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. – 308 bet.
6. Yu.P. Urumbayeva. Makroiqtisodiyot. Darslik. – Samarqand: Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti, "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. – 356 bet.
7. M.M. Muhammedov, J.R. Zaynalov, U.N. Normurodov, I.I. Ayubov, Y.M. Halikov va boshqalar. – Samarqand: Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti, "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2022. – 520 b.
8. G. Saitov. Turizm va milliy iqtisodiyot. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021. – 156–160 bet.
9. Azizxo'jayev A.A., Shodmonova Z.U. Turizm iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 284 b.
10. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Economic Development: A Global Perspective. – Madrid: UNWTO Publications, 2020.
11. Prezident.uz yoki gov.uz saytlarida e'lon qilingan rasmiy bayonotlar.
12. Dwyer L., Forsyth P. International Handbook on the Economics of Tourism. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2006.
13. Saitov A.G. Turizm va milliy iqtisodiyot. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 156–160 bet.
14. L.N. Xalikova. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – Samarqand: Samqarqand iqtisodiyot va servis instituti, "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. – 450 b.
15. Azizov F. Innovatsion turizm va raqamli infratuzilma: O'zbekiston tajribasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi nashriyoti, 2021.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

